

ADABIY ERTAKLARNING JANR XUSUSIYATLARI VA MAZMUNIGA KO'RA TASNIFI VA TAHLILI

*Axmedova Shahnoza Fayzullo qizi
Buxoro davlat pedagogika instituti magistranti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek adabiyoti, xususan, bolalar adabiyotida adabiy ertaklar tushunchasi, adabiy ertaklarning janr xususiyatlari hamda mazmuniga ko'ra turlari haqida so'z yuritiladi va tahlil qilinadi.

Аннотация. В данной статье рассматривается и анализируется понятие литературной сказки в узбекской литературе, особенно детской литературе, жанровые характеристики литературных сказок и их виды по содержанию.

Annotation. This article discusses and analyzes the concept of literary fairy tales in Uzbek literature, especially children's literature, the genre characteristics of literary fairy tales and their types according to their content.

Kalit so'zlar: adabiy ertak, sehrli-fantastik ertak, hayotiy ertak, maishiy ertak, hayvonlar haqidagi ertaklar.

Ключевые слова: литературная сказка, волшебно-фантастическая сказка, жизненная сказка, бытовая сказка, сказка о животных.

Key words: literary fairy tale, magic-fantasy fairy tale, life fairy tale, household fairy tale, fairy tale about animals.

Bugungi kunda adabiy ta'limgiz oldiga o'quvchi yoshlarning milliy-ma'naviy qadriyatlarni puxta o'zlashtirishlari, ularning badiiy-estetik didlarini

shakllantirish va rivojlantirish, o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini o'stirish, har tomonlama yetuk shaxsning aqliy va ruhiy kamolotiga erishish, ong-u tafakkurini o'stirish, mustaqil fikrlaydigan kishini tarbiyalab voyaga yetkazish kabi muhim vazifalar qo'yilgan. Mazkur vazifalarni ado etishda adabiyot fani hamda uning salmoqli tarkibiy qismi bo'lган bolalar adabiyoti umumta'lim tizimidagi boshqa o'quv fanlari orasida muhim o'rinni egallaydi. Adabiy ta'limning bosh maqsadini ham sog'lom, ham ma'naviyatli shaxsni tarbiyalash tashkil etadi. Bu maqsad va vazifalarni bajarishda o'zbek adabiyoti namunalari qatorida adabiy ertaklarning ham keng imkoniyatlari mavjud.

Ertak – xalq og'zaki poetik ijodining asosiy janrlaridan biri; to'qima va uydirmaga asoslangan sehrli sarguzasht va maishiy xarakterdagi epik badiiy asar. Asosan, nasr shaklida yaratilgan. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida yetuk shaklida uchraydi va biror voqeani og'zaki tarzda hikoya qilish ma'nosini bildiradi. Ertak Surxondaryo, Samarqand, Farg'ona o'zbeklari orasida matal, Buxoro atrofidagi tuman va qishloqlarda ushuk, Xorazmda varsaqi, Toshkent shahri va uning atrofida cho'pchak deb ataladi. Ertak hayot haqiqatining hayoliy va hayotiy uydirmalar asosida tasvirlanganligi, tilsim va sehr vositalariga asoslanishi, voqeа va harakatlarning ajoyib-g'aroyib holatlarda kechishi, qahramonlarning g'ayritabiiy jasorati bilan folklorning boshqa janrlaridan farq qiladi.

O'zbek adabiyotida ertaklar yaratilishiga ko'ra: xalq ertaklari va adabiy ertaklar singari turlarga ajratiladi.

Xalq ertaklarida millatning hayoti, tarixi, e'tiqodi, mentaliteti aks etadi va ularda xalq taraqqiyotining turli bosqichlari ma'lum bir tarzda aks ettirilgan bo'ladi. Ularning syujetlari sehr-jodu va baxt-saodat hamda yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi kuchli to'qnashuvlarni ko'rsatadi va ko'pincha baxtli yakun topadi. Odatda, ertaklarda muhabbat, nafrat, mardlik, mehr-oqibat, shafqatsizlik kabi umuminsoniy tuyg'ularni uchratish mumkin. Bolalar ertaklarni o'qishlari orqali uni yaxshi tushunishlari va diqqat bilan o'rganishlari kerak, shunda ular

milliy adabiyotni, shuningdek, butun mamlakat madaniyatini chuqurroq anglay oladilar.

Adabiy ertaklar yozma ertaklar deb ham yuritiladi. Ular jahon adabiyoti, xususan, o'zbek yozma adabiyotining ham katta qismini tashkil etadi. So'nggi ikki-uch yuz yillikda fransuz ertakchisi Sharl Perro (1628-1703), nemis ertaknavislari Ernst Teodor Amadey Gofman (1776-1822), aka-uka Yakob Grimm (1785-1863) va Velgelm-Karl Grimm (1786-1859)lar, Vilgelm Gauf (1802-1877), daniyalik Hans Kristian Andersen (1805-1875), anglialik Oskar Uayld (1854-1900), rus ertakchilari A. S. Pushkin (1799-1837) ijodining roppa-rosa o'n yilini faqat bolalar uchun hikmatli hikoyalar va ertaklar yaratishga bag'ishlagan. Rus ertaknavis ijodkorlari L. N. Tolstoy (1828-1910), K. D. Ushinskiy (1824-1870) yozma ertakchilikni rivojlantirishga katta hissa qo'shdilar. O'zbek yozma ertakchiligi ham uzoq va boy tarixga ega. Jadid bobolarimiz Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Siddiqiy-Ajziy o'zlari tuzgan maktab darsliklari uchun ko'plab ibratli ertaklar yaratdilar. O'tgan asr o'rtalarida Hamid Olimjonning "Oygul bilan Baxtiyor", "Semurg", Sulton Jo'raning "Zangori gilam", Shukur Sa'dullaning "Ayyor chumchuq", "No'xat polvon", "Laqma it" she'riy ertaklari, "Yoriltosh", "Afsona yaratgan qiz" ertak-pyesalari, "Kachal polvon" ertak-qissasi mashhur bo'ldi. Adiblarimizning ertakchilik sohasidagi an'analarini keyinchalik X. To'xtaboyev, A. Obidjon, T. Adashboyev, O'.Imomberdiyev kabi ertaknavis mualliflarimiz davom ettirdilar.

Ertak janri obrazlar talqini, g'oyaviy mazmuni va konflikti, syujet va kompozitsiyasi, uydirmalarning o'rni va vazifasi, tili va uslubiga ko'ra, shartli ravishda: a) hayvonlar haqidagi ertaklar; b) sehrli ertaklar; c) maishiy ertaklar; d) hajviy ertaklarga bo'linadi.

Hayvonlar haqidagi ertaklar. Bu tipga mansub ertaklarning yaratilishida ibtidoiy insonlarning qadimgi totemistik qarashlari asos bo'lган. Ularda hayvonlar yetakchi personajlar bo'lib, insonlar qiyofasida tasavvur etilgan va badiiy jonlantirilgan. Shunga ko'ra ularning sujeti asosida ("Susambil", "Bo'ri

bilan tulki”, “Ikki boyqush” va boshqalar) ko’chma ma’no, allegorik obrazlar yotadi, inson obrazi keyingi o’rinda turadi, ko’p hollarda voqelikka inson aralashmaydi. Bu turdagи ertaklarni shartli ravishda majoziy ertaklar ham deyish mumkin.

Sehrli-fantastik ertaklar. Bu tipdagи ertaklar batamom xayoliy uydirma asosiga qurilganligi, ibridoiy insonning animistik tasavvur-tushunchalarini ifodalab kelishi jihatidan boshqa turdagи ertaklardan keskin farq qiladi. Ularda voqealar sehr-jodu, fantastik uydirmalar asosiga qurilgan, asar qahramonlari har narsa qo’lidan keladigan mo’jizakor kimsalar (“Yalmog‘iz”, “Devbachcha”) yoki jonlantirilgan narsa yoxud hayvonlar (“Ur to’qmoq”, “Ochil dasturxon”, “Semurg”, “Susambil” ertaklari) dan iborat. Bu ertaklarning maqsadi ham turli g’ayriinsoniy illatlar: yolg’onchilik, johillik, ikkiyuzlamachilikni la’natlash, aql-farosatlilik, tadbirkorlik, jasurlik, rahmdillik, ahillik kabi chin insoniy xislatlarni targ’ib qilishdir. Ertakchilar xayoliy “uchar gilamlar”ni samolyotlar ixtiro qilinmasdan necha asrlar ilgari, afsonaviy tez harakatlanuvchi jismlarni parovoz, gaz va elektromotorlar bunyodga kelmasdan birmuncha vaqt ilgari bilganday go’yo...

Chindanda, kishilik taxayyuloti bilan yaratilgan oynayi jahonnamo – televizor, uchar gilam – samolyot, o’zi yurar etik yoki kovush – mashina, poyezd, ur to’qmoq – zamonaviy avtomat quollar tarzida endilikda moddiylashganki, bular qachonlardir xalq fantastikasida yaratilgan sehrlanish hodisasining mo’jizaviy natijasi hisoblanadi. Sehrli-fantastik ertaklarda voqelik favqulodda shiddatli sirli tusda, g’ayrioddiy muhitda, sehr-jodu ishtirokida, g’ayritabiiy personajlar hamkorligida yuz berishi bilan xarakterlanadi. Ularda voqea yuz berayotgan makon va zamon tilsimli, sirli bo’ladi. Jonsiz narsalar jonlantiriladi va ular insonlardek xatti-harakatda tasvirlanadi.

Xayoliy hikoyalari orasida shunday turkum ertaklar borki, ularni biz hayotiy-maishiy ertaklar deb ataymiz. Bunday ertaklardagi voqealarning aksariyati hayotga yaqin, hayotdan olingan. “Zumrad va Qimmat”, “Oygul bilan Baxtiyor”, “Ziyod botir”, “Tohir va Zuhra”, “Ozodachehra”, “Farhod va Shirin”, “Malikayi

Husnobod”, “Uch og'a-ini botirlar” ana shunday ertaklar sirasidandir. Biz yuqorida tilga olgan hayotiy-maishiy ertaklar kishida jiddiy fikr-mulohazalar uyg'otadigan, muayyan tarbiyaviy yo'nalishga ega bo'lgan asarlardir. O'quvchi ular bilan tanishgach, botirlik, yurtga fidoyilik, odamgarchilik, vafodorlik, himmat va saxovat haqida aniq tasavvurga ega bo'ladi, o'zingizda ham ertaklar qahramonlaridagi yaxshi fazilatlami bo'lishini xohlab qolasidi, shunga intiladi.Ular mazmun-mundarijasi va g'oyaviy yo'nalishi, obrazlariga ko'ra sehrli-fantastik va hayvonlar haqidagi ertaklardan farq qiladi. Ularda aniq shaxsning o'z aql kuchi, tadbirkorligi, chidam va matonati, yuksak insoniy fazilatlari tufayli murod-maqsadiga yetishuvi ko'rsatib beriladi. Shu sababli maishiy-hayotiy ertaklar syujetini ijtimoiy-maishiy mazmundagi voqelik tashkil etadi. Ularning aksariyatida jamiyatdagi ijtimoiy kamchiliklar, nosozliklar, mehnat ahlining hukmron tabaqa vakillaridan noroziligi umumlashma obrazlarda ochib beriladi.

Hajviy-maishiy ertaklar asosida o'tkir satira yoki zavqbaxsh kulgi (humor) — yotadi. Bunday ertaklar hajman ixcham, mazmunan lo'nda bo'ladi. Satirik ertaklar humoristik namunalarga nisbatan ko'proqdir. Ular sinfiy munosabatlar keskinlashuvi sharoitida yaratiladi. Bu xildagi ertaklarning o'z qahramonlari bor. Bular – kambag'al, sodda dehqon va dono qiz, Ko'sa va boshqalar, ular ko'p hollarda kansitilanlarning umumlashma siymolaridir. Bular safida No'xatpolvon ham bor. Bu personajlar hajviy-maishiy ertaklar tarkibida ko'p holatlarda xasis boy, ochko'z, savodsiz qozi, zolim podsho, berahm qaroqchi singari hukmron tabaqa vakillariga zid qo'yilib tasvirlanadi. Hajviy-maishiy ertaklarda ko'chma ma'noli savol-javoblar, topishmoq aytishuvlari, so'z o'yinlari shaklida qurilgan dialoglar asosida raqib tarafning kamchiliklari ochib beriladi. Ularda personajlarning portretini tasvirlashga alohida e'tibor qilinadi, aniqrog'i, sajiyasining ijobiymi yoki salbiyligiga qarab uning portreti chiziladi. Satirik ertaklarda ko'p hollarda sinfiy ziddiyatlar ifodasi kengroq mavqeda turadi.

Umuman olganda, ertaklarning har bir turi xalqning necha-necha ming yilliklar davomidagi hayotiy tajribalarini umumlashtirgan holda uning ijtimoiy

ongida, estetik didida, axloqiy qarashlarida, e'tiqodida kechgan o'sish-o'zgarishlarning badiiy tarixi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois hozir ham miriqib tinglanadi, sevilib o'qiladi, eng muhimi, navqiron avlodning ma'naviy-axloqiy kamol topishida beqiyos ta'sir ko'rsatib kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Afzalov M. O'zbek xalq ertaklari haqida. – T.: Fan, 1984.
2. Gorkiy M. Adabiyot haqida. – T.: Fan, 1999.
3. Imomov K. O'zbek xalq prozasi. – T.: Fan, 2007.
4. Yo'ldoshev Q., Madaev O., Abdurahmonov L. Adabiyot o'qitish metodikasi. – T.: O'qituvchi, 2016.

INTERNET MANBALARI

1. <https://uz.wikipedia.org>
2. <https://biling.academiascience.org>
3. <https://cyberleninka.ru>